



ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-mart

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi 2100,9 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,6 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, avtomobil savdosiga, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,9 foizga ko'payishiga olib keldi.

2018 yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shaxri (23,6 foiz), Koson (10,0 foiz), Chiroqchi (8,7 foiz), Qamashi (7,2 foiz) va Kitob (6,6 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Joriy yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 666,1 ming.so'm bo'lib o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,2 foizni tashkil etdi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahari (1847,4 ming. so`m), Shaxrisabz shahari (927,2 ming. so`m) Mirishkor (862,8 ming. so`m), Muborak (768,4 ming. so`m) va Dehqonobod (766,7 ming.so`m) tumanlarida kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining tovar aylanmasi hajmi 36,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Ming.so'mda

	Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi	O'tgan yilning mos davri nisbatan % da
Qashqadaryo viloyati	666,1	121,2
<i>G'uzor tumani</i>	416,8	94,9
<i>Dehqonobod tumani</i>	766,7	167,3
<i>Qamashi tumani</i>	580,8	183,6
<i>Qarshi tumani</i>	347,6	75,3
<i>Koson tumani</i>	765,9	150,7
<i>Kitob tumani</i>	544,5	114,9
<i>Mirishkor tumani</i>	862,8	223,9
<i>Muborak tumani</i>	768,4	109,5
<i>Nishon tumani</i>	582,7	123,7
<i>Kasbi tumani</i>	493,2	159,8
<i>Chiroqchi tumani</i>	465,6	152,5
<i>Shaxrisabz tumani</i>	347,0	55,8
<i>Yakkabog' tumani</i>	447,0	113,1
<i>Qarshi shaxri</i>	1847,4	106,8
<i>Shaxrisabz shaxri</i>	927,2	0,0

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI


Kichik tadbirkorlik subektlarining chakana savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,0 foizni tashkil qildi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 86,6 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 1450,0 mlrd.so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 69,0 foizni tashkil etdi.



Jami chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi (tumanlar kesimida), foizda



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'lim boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: Ya. Xolto'raev

